

ULGURJI ISTE'MOLCHILAR UCHUN ELEKTR TA'MINOTI

SHARTNOMASI

2022 yil 27 dekabr

5621 - son

Ташкент

TEEK nomi

"Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi "AJ ning 2022 yil " " da ro'yxatdan o'tkazilga -son bosh ishonchnoma sosis dafaoliya-

yurituvchi rahbari (tuman elektr ta'minoti korxonasining nomi) F.I.O.

(keyingi o'rinlarda "Ta'minotchi korxonasi" deb ataladi) bir tomondan hamda asosida faoliyat yurituvchi

СМУ Управление энергосбыта и электроснабжения (iste'molchining nomi) rahbari Фиреунов Э.У. (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), (iste'molchi rahbarining F.I.O.)

ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

SHARTNOMA PREDMETI

Ushbu elektr energiyasi ta'minoti shartnomasiga (keyingi o'rinlarda - Shartnoma deb ataladi) muvofiq, "Ta'minotchi korxonasi" "Iste'molchi" ga elektr energiyasini ulangan tarmoq orqali yetkazib berish va "Iste'molchi" iste'mol qilingan energiya uchun o'z vaqtida haq to'lash majburiyatini oladi.

II. YETKAZIB BERILGAN ELEKTR ENERGIYANI XISOBGA OLISH

2.1. Elektr energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi:

Aktiv 450000 kVt\*s reaktiv 450 kVar\*soat.

2.2. Yetkazib beriladigan energiyani shartnoma tuzilgan kunidagi umumiy narxi 202500000 tashkil etadi. 450 so'mni, tarif bo'yicha

tarif turi:

tabaqalashtirilgan, bir stavkali yoki axoliga tenglashtirilgan, (keraklisi yozilsin)

2.3. "Iste'molchi" ga yetkazib beriladigan elektr energiyasining oylar kesimidagi yillik xajmi ushbu shartnomaga 1-ilovada keltirilgan.

Yetkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun elektr ta'minotida tanqislik yuzaga kelgan taqdirda, Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan, strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilarga zarur bo'lgan elektr energiyasining minimal hajmini, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha iste'molchi bilan belgilangan tartibda oldindan kelishilgan holda yetkazib berilishini ta'minlashi shart (7-ilova).

2.4. "Iste'molchi" tomonidan iste'mol qilingan elektr energiyasining haq to'lanishi lozim bo'lgan hajmi ushbu shartnomaga 2-ilovada nazarda tutilgan xisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida, hisobga olish priborlari ulangan tok va kuchlanish transformatorlarining transformatsiya koeffitsiyentlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2.5. Iste'molchilarning (maishiy iste'molchilar va tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) elektr energiyasini xisobga olish uskunalari, shuningdek elektr energiyasini hisobga olishning boshqa vositalari iste'molchining mablag'lari xisobiga sotib olinadi, davlat qiyosovidan o'tkaziladi, hududiy elektr tarmoqlari korxonalar tomonidan bepul o'rnatiladi, plombalanadi va ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tadbirkorlik subyektlaridagi elektr energiyasini hisobga olish elektron asboblari sotib olish, o'rnatish, ro'yxatga olish, davriy davlat qiyosovidan o'tkazish va plombalash, shuningdek, mavjud (jumladan, induksion) hisobga olish asboblari ilk marotaba (birinchi marotaba) hududiy elektr tarmoqlari korxonasi mablag'lari hisobidan almashiriladi.

Hisobga olish iste'molchining aybi bilan buzilgan taqdirda (tok va kuchlanishni o'lchash transformatorlarining ishdan chiqishi, shuningdek, ikkilamchi kommutatsiya, hisobga olish asboblarning shikastlanishi va ularning yo'qolishi) hisobga olish nazorat qilish asboblari va ularga tegishli asbob-uskunalarni almashirish, ta'mirlash, davlat qiyosovidan o'tkazish va o'rnatish iste'molchi tomonidan ular qiymati va ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'langan holda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI

3.1. Elektr energiyasi uchun hisob-kitoblari bir stavkali, tabaqalashtirilgan yoki aholiga tenglashtirilgan tariflar asosida amalga oshiriladi.

3.2. Ulangan quvvati 750 kVA va undan ortiq bo'lgan "Iste'molchi" (byudjet tashkilotlari, suv ta'minoti tashkilotlari, fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalarining nasos stansiyalari, shuningdek Davlat byudjetidan moliyatlashtiriladigan nasos stansiyalari bundan mustasno) elektr energiyasi uchun hisob-kitoblarni tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan energiya uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitoblari:

yarim tig'iz davr - sutkaning yorug' vaqtida (soat 9<sup>00</sup> dan 17<sup>00</sup> gacha) - belgilangan tarif bo'yicha,

tig'iz davr - eng katta yuklamali soatlarda (yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamali soatlari: ertalabki eng katta miqdor soat 6<sup>00</sup> dan 9<sup>00</sup> gacha, kechki eng katta miqdor soat 17<sup>00</sup> dan 22<sup>00</sup> gacha) belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar miqdorda o'suvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali;

tungi davr - sutkaning qorong'i vaqtida (eng kam yuklamali soatlarda: 22<sup>00</sup> dan 24<sup>00</sup> gacha va 00<sup>00</sup> dan 6<sup>00</sup> gacha) - belgilangan tarifga nisbatan 1,5 baravar kamayuvchi koeffitsiyentni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tarif II-tarif guruhi bir stavkali iste'molchilarga qo'llaniladigan tarifga to'g'ri keladi.

Tabaqalashtirilgan tarif qo'llanilmaydigan iste'molchiga nisbatan energiya uchun hisob-kitoblarda bir stavkali tarif qo'llaniladi.

Reaktiv energiya kompensatsiyasi uchun chegimlar (ustamalar) reaktiv energiyani hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi hamda tegishli ravishda iste'mol qilingan (hosil qilingan) reaktiv energiyani 1 kVar.soat uchun to'lov tarzida undiriladi.

Reaktiv energiyani shartnomaviy miqdori reaktiv energiyani iqtisodiy qiymatidan ko'rib chiqqan holda aniqlanadi.